




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-dekabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5312,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 707,8 mln. AQSh dollariga yoki 15,4 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 2011,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 112,6 %) va import hajmi 3300,6 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 117,1 %) yetdi. Hisobot davrida 1289,3 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-dekabr nisbatan, %da)

2021- yil yanvar-dekabr





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	1 144,8	326,5	818,3	21,6
Turkiya	940,8	753,9	186,9	17,7
Qozog'iston	932,6	157,5	775,1	17,6
Xitoy	783,5	288,6	494,9	14,7
Braziliya	181,7	0,0	181,7	3,4
Ukraina	148,0	45,8	102,2	2,8
Koreya Respublikasi	144,8	15,1	129,7	2,7
Belarus	102,1	18,9	83,2	1,9
Tojikiston	86,2	77,1	9,1	1,6
Germaniya	75,6	9,9	65,7	1,4
Afg'oniston	72,0	71,6	0,4	1,3
Qirg'iz Respublikasi	61,6	44,3	17,3	1,2
Italiya	57,2	11,1	46,1	1,1
Litva	52,3	0,8	51,5	0,9
Niderlandiya	47,8	29,5	18,3	0,9
Irlandiya	40,5	0,0	40,5	0,8
Polsha	32,7	13,7	19,0	0,6
Singapur	31,2	29,8	1,4	0,6
Eron (Islom Respublikasi)	31,1	3,0	28,1	0,6
Qatar	28,8	28,8	0,0	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,5 %ni hamda o'sish sur'ati 2020-yilning shu davriga nisbatan 118,0 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 52,5 %ni (2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,6 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,1 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021-yil yanvar-dekabr, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Qatar va Singapur davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog‘iston va Xitoy davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan 2011,4 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 112,6 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (70,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,3 %), turli xil tayyor buyumlar (7,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,3 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,3 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,7 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-dekabr)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	2011,4	691,9	1319,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	228,2	108,8	119,4	11,3	15,7	9,0
Ichimliklar va tamaki	3,3	3,2	0,1	0,2	0,5	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	86,1	52,1	34,0	4,3	7,5	2,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	0,5	0,4	0,1	0,0	0,1	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,0	0,1	0,9	0,1	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	85,9	61,4	24,5	4,2	8,9	1,8
Sanoat tovarlari	1407,8	290,1	1117,7	70,0	41,9	84,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	34,5	24,4	10,1	1,7	3,5	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	154,4	149,5	4,9	7,7	21,6	0,4
Xizmatlar	9,7	1,9	7,8	0,5	0,3	0,6




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI
(2021- yil yanvar-dekabr)**



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	112,6	106,4	116,1
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	83,0	61,0	123,8
Ichimliklar va tamaki	174,4	194,3	41,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	115,4	159,1	81,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	10,4 m.	59,7 m.	2,6 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	38,2	81,0	35,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	177,5	174,4	186,0
Sanoat tovarlari	116,1	112,1	117,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	89,0	107,4	63,0
Turli xil tayyor buyumlar	128,2	127,5	153,4
Xizmatlar	80,2	58,2	88,2



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston va Ukraina hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1721,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,6 %ini tashkil qiladi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

2021- yil
yanvar-dekabr

TOSHKENT VILOYATIDAGI EKSPORTI HAQIDA MA'LUMOTLAR



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 159,7 mln. dollar qiymatga ega 247,6 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 26,0 %ga kamaygan, naturada – 28,8 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 99,4 mln. AQSh dollariga teng 163,9 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 5,0 %ga o'sgan), shuningdek, 34,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 45,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 52,8 %ga teng).

2021- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari

				
Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'oqlar	Sabzavotlar
45,4 ming tonna	27,0 ming tonna	8,5 ming tonna	2,7 ming tonna	163,9 ming tonna
34,8 mln. AQSH dollari	20,0 mln. AQSH dollari	2,3 mln. AQSH dollari	3,1 mln. AQSH dollari	99,4 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 134,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 6,7 %ini tashkil qiladi.


TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)



Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida import hajmi 3300,6 mln. AQSh dollari (2020-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 117,1 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (25,6 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (20,4 %), sanoat tovarlari (19,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (8,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.






Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	3300,6	1832,2	1468,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	511,2	232,2	279,0	15,5	12,7	19,0
Ichimliklar va tamaki	7,8	7,4	0,4	0,2	0,4	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	672,3	646,6	25,7	20,3	35,3	1,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	82,0	80,4	1,6	2,5	4,4	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	77,5	71,4	6,1	2,3	3,9	0,4
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	289,3	96,6	192,7	8,8	5,3	13,1
Sanoat tovarlari	629,9	456,0	173,9	19,1	24,9	11,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	845,5	204,3	641,2	25,6	11,1	43,7
Turli xil tayyor buyumlar	140,6	27,1	113,5	4,3	1,5	7,7
Boshqa tovarlar	11,6	5,4	6,2	0,4	0,3	0,4
Xizmatlar	32,9	4,8	28,1	1,0	0,2	1,9

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (35,3 %), sanoat tovarlari (24,9 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,7 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.



Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	117,1	123,1	110,4
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	134,9	78,6	3,3 m.
Ichimliklar va tamaki	160,0	170,8	69,3
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari)	154,9	163,4	67,0
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shu kabi materiallar	78,9	78,6	95,9
Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	97,2	111,2	39,2
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	136,8	161,9	127,0
Sanoat tovarlari	119,8	132,3	96,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	98,8	121,3	93,3
Turli xil tayyor buyumlar	95,5	112,3	92,2
Boshqa tovarlar	46,1	42,2	50,0
Xizmatlar	64,4	28,7	81,8





Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2688,7 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 81,5 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59